

INSONPARVARLIK TAMOIYLLARIGA ASOSLANGAN MA’NAVIY DIPLOMATIYA

BMT Bosh Assambleyasining Nyu-York shahrida boʻlib oʻtgan yubiley anjumani — 80-sessiyasi umumsiyosiy munozaralarida O‘zbekiston Prezidentining chiqishi nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaq va jahon miqyosida dolzarb ahamiyatga ega voqealik sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan qizg‘in kutib olindi.

Mazkur tarixiy nutqda mahalliy, mintaqaviy va global darajadagi masalalarga alohida ahamiyat qaratildi. Jumladan, unda zamonaviy dunyodagi global tahdidlar, xavfsizlikka doir masalalar, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqaror taraqqiyot, turli sohalardagi hamkorlik hamda global muammolarga munosabat bildirilib, ularning yechimiga oid o‘ndan ortiq taklif va tashabbus ilgari surildi.

Prezidentimiz BMT minbaridan buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosini alohida ta’kidlab, yaqin vaqtda BMTda maxsus taqdimot o‘tkazish taklifini bildirdi.

Bu tashabbus nafaqat tarixiy merosimizning yuksak qadrlanishi, balki jahon hamjamiyatiga islomning haqiqiy mohiyati — ma’rifat, bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalari yekkazish yo‘lida muhim qadamdir.



“Prezidentimiz BMT minbaridan buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosini alohida ta’kidlab, yaqin vaqtda BMTda maxsus taqdimot o‘tkazish taklifini ilgari surdi.

Yurtimizda so‘nggi yillarda ajdodlarimiz ilmiy merosini o‘rganish sohasida ulkan ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi qaroriga binoan O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markaziga tamal toshi qo‘yilgandi. Bugungi kunda bu muhtasham inshootda bunyodkorlik ishlari yakuniy bosqichga kirdi. Mahobatli bino qadimgi me’moriy obidalarimiz qiyofasini o‘zida aks ettiradi. Milliy gumbaz va peshtoqlar, naqshlarning ajoyib uyg‘unligi unga alohida ko‘rk bag‘ishlagan. Majmuaning to‘rt tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar, o‘rtada 65 metrli gumbaz qurilgan.

[Davomi 3-betda](#)

ISHONCH VA HAMJIHATLIK – GLOBAL TARAQQIYOT ASOSI

BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida Prezidentimiz bildirgan fikrlar va ilgari surgan tashabbuslar mamlakatimiz tashqi siyosati ochiqlik, tinchliksevarlik va hamkorlikka qaratilganini yana bir bor yaqqol ko‘rsatdi.



Munosabat

Nutqda ta’kidlanganidek, hozirgi murakkab geosiyosiy vaziyatda xalqaro huquqni, millatlar va davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik va ishonchni kuchaytirish global barqarorlikning asosiy omilidir. Bugun dunyo miqyosida xavfsizlik va taraqqiyotni ta’minlash uchun ziddiyatlardan ko‘ra umumiy manfaatlar ustuvor qo‘yish zarur.

So‘zda va amalda birlik

O‘zbekiston so‘nggi yillarda global mas’uliyatni zimmasiga olish va jahon miqyosidagi muammolarga aniq yechimlar taklif qilishga qodir mamlakat sifatida o‘zini namoyon eta oldi. “Bundan 8 yil muqaddam biz ushbu yuksak minbardan turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilganimizni e’lon qilgan edik. Bugun chuqur mamnuniyat bilan ta’kidlash mumkin: biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi”, dedi Prezidentimiz.

Bu jarayonda O‘zbekiston muloqot tashabbuskori, birlashtiruvchi kuch, tinchlik va taraqqiyotning tayanch nuqtasi sifatida yetakchi o‘rin tutdi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslar, jumladan, Butunjahon professional ta’lim sammitini o‘tkazish, Afg‘oniston orqali transport va energetika koridorlarini rivojlantirish, terrorizmga qarshi mintaqaviy markazni tashkil etish, yoshlar uchun global harakat platformasini yaratish kabi qator xalqaro doiradagi takliflar Markaziy Osiyo va jahon hamjamiyati uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

[Davomi 2-betda](#)



Bugunning gapi

UMUMBASHARIY MAQSADLAR YO‘LIDA

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasida global muammolar tahlili, har bir muammo yechimi bo‘yicha ilgari surgan taklif va tashabbuslari diqqatimni tortdi. Ayniqsa, mamlakatimizdagi yangilanishlar, yurtdoshlarimiz farovonligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lidagi islohotlar samarasi haqidagi so‘zlari yuragimni faxr-iftixorga to‘ldirdi.

Gap xalqaro jamoatchilikning e’tibori yoki e’tirofida emas, balki yangi O‘zbekistonimizdagi islohotlar negizida inson qadri va farovonligini oshirish, har bir oila, har bir fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish maqsadi mujassamligi, tarixan juda qisqa muddatda katta natijalarga erishilganida. Kambag‘allikni qisqartirish masalasini olaylik: so‘nggi yillarda mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizga qisqargani “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida qilinayotgan ishlarning natijasidan dalolatdir. Shu faktning o‘ziyoq davlatning siyosati, inson haq-huquqlari, qadr-qimmat, ehtiyojlariga munosabati haqida so‘zlaydi. Ta’lim va ilm-fan sohasida ham sezilarli natijalarga erishildi. Masalan, keyingi yillarda maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 42 foizga yetdi.

Davlatimiz rahbarining yurtdoshlarimiz, xalqaro ekspertlarning haqli e’tirofiga sazovor bo‘layotgan tashabbuslari orasida Butunjahon professional ta’lim sammitini O‘zbekistonda o‘tkazish taklifi alohida ahamiyatga ega.

[Davomi 5-betda](#)



Yangicha yondashuvlar

ZAMONAVIY STATISTIKA MODEL

KAM XARAJAT VA KUTILGAN SAMARA

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish nafaqat demografik holatni tahlil qilish, balki iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash, urbanizatsiya jarayonini boshqarish, mehnat bozori muvozanatini saqlash, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya tizimlarini samarali tashkil etish uchun zarur poydevor vazifasini bajaradi.

Jumladan, ijtimoiy infratuzilmani hududlar bo‘yicha maqbullashtirish, ta’lim muassasalari uchun o‘quvchilar sonini prognoz qilish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish uchun aholining zaif qatlamlarini aniqlashda aynan ro‘yxatga olish natijasida shakllangan ishonchli ma’lumotlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, aholining statistik portretini yaratish orqali xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, hududlar kesimida zamonaviy infratuzilma tashkil etishni rejalashtirish hamda inson kapitalini to‘g‘ri baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Xususan, BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashda aholi bo‘yicha aniq raqamlar talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayoni davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va aholining hayot sifatini yaxshilashdagi hal qiluvchi vositadir.

Aholini ro‘yxatga olish mamlakatda yashovchi barcha shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni maxsus tayyorlangan ilmiy-statistik usullar asosida yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir.

[Davomi 4-betda](#)



NYU-YORK UCHRASHUVLARI

Sirojiddin SAYYID, O‘zbekiston xalq shoiri

Nyu-York ko‘chalari bayroqzoru bayroqzor, O‘zbekiston bayroqdor, O‘zbekiston bayroqdor.

Nyu-York — Yangi shahar, bu ko‘hna ochundadir, Birlashgan Millatlarning Tashkiloti shundadir.

Diplomatlar tilida butun dunyo poytaxti, Ozodlik obidasin shunda erur joy-taxti.

Nyu-York ko‘chalari dilbandlaringday dildor, Keta-ketguncha diydor, keta ketguncha diydor.

Hilpiragan har bayroq — jimiragan ko‘nglimdir, Nyu-York ko‘chalari ko‘nglimday limmo-limdir.

Garvardlarni zabt etgan aziz o‘g‘il-qizlaring — Sening yorug‘ yuzlaring, sening qolar izlaring.

Dunyoda hech bormikan bunday shodon chehralar, Bunday shodon chehralar, bunday xandon chehralar.

Toleyi baland elga bul mening in‘omlarim, Osmono‘par uylarday yuksalib ilhomlarim —

Davr-u davroningizga she‘r bitib qavat-qavat — Men havas qilgum faqat, men havas qilgum faqat.

Qanchalar jalb etmasin Amerikaday diyor, O‘zbekiston, ona yurt, sizga doim intizor.

Erta-indin bu yerda ko‘p nufuzli, bir talay Olamshumul bitimlar inzolangay paydar-pay.

Yovlashuvmas, bu dunyo do‘stlashuv, yorlashuvdir, Dunyoning obodligi asli diydorlashuvdir.

Bir gapni bilib aytgan buyuk bobokalonlar, Bobolardan bizlarga qolmish bobo kalomlar.

Ya’ni el-u yurtlarni guftordan ayirmasin, Eng avvalo diydordan, diydordan ayirmasin!

Muhtaram Donald Tramp, janobi oliylari, Tegrasida korchallon magnatu voliylari —

Aytdiki: O‘zbekiston qutlovlariga sazovor, Men sharaf deb bilgayman, O‘zbekiston bayroqdor.

Prezident bu gapni takror va takror aytdi, Chin dildan, chin yurakdan aylab iftixor aytdi.

Bu xabar shov-shuv bo‘ldi Texasdan Termizgacha, Jar soldi “Si-en-en”u “Nyu-York Tayms”gacha.

Bitsin ro‘yi zaminda yovuzlik va yomonlik, Tinchlik barqaror bo‘lsin, bo‘lsin sulhu omonlik.

Butun olam ahlining bedor fikr-u yodidir — Falastin faryodi bu, Falastin faryodidir.

Qasri bunyoding balki ming yillik, millyon yillik, Eng oliy insoniylik — insonga insoniylik.

Bitsin urush-janjallar, ketsin butkul nizolar, Barcha sohibdavlatlar cheksin shunga imzolar.

Millatlar minbaridan olamga bo‘ldi oshkor, O‘zbekiston fidokor, O‘zbekiston fidokor.

Gul eksin, bog‘ yaratsin har inson, har idora, Avj olsin bordi-keldi, murosayu madora.

Yuz millyon ko‘chat qadab, bog‘ qilmish bir mirishkor, O‘zbekiston tadbirkor, O‘zbekiston tadbirkor.

Bu internet-intellekt zamonidir bir qadar, Bobolar tush-xayoli o‘ng kelmog‘i muqarrar.

Osmoningda uchsalar “Boing”lar qator-qator, Men aytgum: O‘zbekiston barqarordir, barqaror!

Yarqiragan “Boing”dan bir tong sahar, hech gapmas, Beruniy bobo o‘zi tushib kelsa ajabmas.

Bu parvozar bardavom — uzilmas qatorlari, Tuganmasdir, tuganmas Nyu-York diydorlari.

Sha’n-u sharaflaringga o‘zingdirsan shahsuvor, O‘zbekiston ustuvordir, O‘zbekiston ustuvor!



2025-yil 30-sentabr, 201-son

SIYOSAT

YANGI O'ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

ISHONCH VA HAMJIHATLIK – GLOBAL TARAQQIYOT ASOSI

Munosabat



Abdulla XURSANOV,
“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”
AJ boshqaruvi raisi

Boshlanishi 1-betda

Qo‘shning tinch — sen tinch

Turli mintaqalarda davom etayotgan qurolli mojarolar global tinchlik va osoyishtalikka putur yetkazmoqda. Bunday nizo va to‘qnashuvlar begunoh insonlarning hayotdan erta ko‘z yumishiga olib kelyapti. Investitsiya oqimi, tovar va xizmatlar aylanishiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bo‘yicha yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Aynan shu sababli Prezidentimiz Afg‘oniston, Ukraina va G‘azo muammolarida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidladi. Bunda Afg‘oniston bilan hamkorlik o‘rnatish zarurligi alohida qayd etildi. Qo‘shni mamlakatni yordamsiz qoldirmaslik, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘mak berish muhimligiga urg‘u berildi. Bu esa

mintaqa barqarorligi va xavfsizligiga xizmat qiladi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun keng imkoniyat eshigini ochadi.

O‘zbekiston insonparvarlik yordamlarini jo‘natish, energetika tizimini barpo etishga ko‘maklashish, savdo hajmini ko‘paytirishdan tortib qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishgacha bo‘lgan iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash orqali o‘zi tanlagan yo‘lni amalda namoyon etmoqda.

Mamlakatimiz muhim xalqaro platformaga aylanadi

Bugun dunyoga katta xavf solayotgan global xatarlardan yana biri terrorizmdir. Nutqda ushbu masalaga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Jumladan, BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda tuzilgan Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo‘yicha mintaqaviy kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklif etildi. Ushbu tuzilma muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo‘yicha tajriba almashish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Toshkent shahrida Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini ochish uchun zarur sharoit yaratishga O‘zbekiston tayyor ekanini bildirdi.

Ekologik tashabbuslar — barqaror rivojlanish asosi

Qurg‘oqchilik, suv tanqisligi kabi ekologik muammolar har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishiga xavf tug‘diradi. Orol fojiasiga e‘tibor qaratgan Prezidentimiz faqat davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali ekologik muvozanatni saqlab qolish mumkinligini ta’kidladi.

Bunda ilgari surilgan ekologik tashabbuslar global tahdidlarni kamaytirish,

muammolarga hamjihatlikda yechim topish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan.

Davlatimiz rahbarining Toshkentda suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazish taklifi muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarni hal etish bo‘yicha Global pakt qabul qilish taklifini ham ko‘pchilik qizg‘in kutib oldi.

O‘zbekiston ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida chiqindilarni qayta ishlash va suvdan samarali foydalanish, hududlarni rekultivatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni bajarmoqda. Bu jarayonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish davr talabi bo‘lib qolyapti.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, zamonaviy ekologik standartlarni joriy etish, texnogen chiqindilarni kamaytirish yo‘lga qo‘yilgan. Bu bizga global dunyoda raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi. Kombinat ISO 14001 “Ekologik menejment tizimi” xalqaro standarti sertifikatiga ega.

Inson qadrini yuksaltirish — ustuvor vazifa

Prezidentimiz kambag‘allikni kamaytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlashni yaxshilashga alohida e‘tibor qaratish orqali iqtisodiy o‘sishning insonparvar yo‘nalishini ko‘rsatib berdi.

Bu yo‘nalishdagi davlat siyosati ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, ish o‘rinlari ochish va aholi farovonligini oshirishga zamin hozirlaydi.

Bosh Assambleya sessiyasida davlatimiz rahbari ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan, ayniqsa, qishloq joylardagi oilalarda xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, munosib mehnat sharoiti yaratish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar samaradorligi xususida ham to‘xtalib o‘tdi.

Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish taklifi

Yoshlar — kelajak resursi

Kuchli mamlakatgina kelajak haqida qayg‘uradi. Shu bois, yoshlar bilan bog‘liq tashabbuslar nutqning muhim qismi bo‘ldi. Bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizi yoshlardan iborat.

Davlatimiz rahbarining yoshlar qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm hamda do‘stlik, o‘zaro ishonch, hurmat kabi ezgu g‘oyalarni singdirish, “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi diqqatga molik. Xalqaro shtab-kvartirasi Toshkentda joylashgan “Tinchlik uchun” harakati turli mamlakatlar, dinlar va madaniyatlarga mansub yoshlarni tinchlik, o‘zaro tushunish va barqaror rivojlanish qadriyatlarini atrofida birlashtiruvchi platformaga aylanishi mumkin.

Prezidentimiz “Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o‘rib kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir”, deya yoshlarga juda munosib baho berdi.

Ertamiz bugundan boshlanadi

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasida ilgari surgan barcha tashabbusi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. Eng muhimi, bu g‘oya va takliflar umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi hamda jahonda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan.

Prezidentimizning adolati siyosati tufayli mamlakatimiz tashqi siyosatda tinchlik va hamjihatlik g‘oyalarni yorqin aks ettiruvchi davlatga aylandi. Bu bizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Ismoil Hakimovich JO‘RABEKOV



Atoqli davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining maslahatchisi Ismoil Hakimovich Jo‘rabekov shu yil 28-sentabr kuni 94 yoshida vafot etdi.

I.Jo‘rabekov 1931-yil 12-sentabrda Samarqand shahrida ishchi oilasida tug‘ildi. O‘rta maktabni tugatganidan so‘ng Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida muhandis-gidrotekhnika mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim oldi. Mehnat faoliyatini 1955-yilda Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumanidagi 8-jamoa xo‘jaligida muhandis-gidrotekhnika sifatida boshladi. Keyinchalik ushbu tumanda Sug‘orish markazi boshlig‘i, O‘zbekiston suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Samarqand viloyati qurilish-montaj boshqarmasi boshlig‘i, “Suvqurilish” trest boshqaruvchisi, suv xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari, melioratsiya va suv xo‘jaligi vaziri kabi mas‘ul lavozimlarda samarali mehnat qilib, respublikamizda irrigatsiya va melioratsiya sohasini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdi.

SH.MIRZIYOYEV, T.NORBOYEVA,
N.ISMOILOV, A.ARIPOV

HAR BIR OILA FAROVONLIGI, INSON QADRINI OSHIRISH — USTUVOR VAZIFA

Nuqtayi nazar



Muslihiddin MUHIDDINOV,
Samarqand davlat universiteti professori,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

Uning dastlabki qismida jahondagi ziddiyatli jarayonlarga e‘tibor qaratildi. Urushlar, iqtisodiy inqirozlar, ekologik tahdid va ijtimoiy tengsizlik bugunning haqoniy manzarasi sifatida qayd etildi.

“Hozirgi kunda dunyoda xalqaro institutlarning o‘rni va roli zaiflashmoqda, qaramaqarshilik, nizo va urushlar kuchaymoqda, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshmoqda, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar ortib bormoqda. Bularning hammasi muddao yangi, xavotirli geosiyosiy voqealarni vujudga keltirmoqda”, dedi davlatimiz rahbari. Bu bayonot dunyoda kuchayib borayotgan global beqarorlikni aniq ifoda etdi.

Prezidentimizning eng muhim chaqirqlaridan biri — BMTning asosiy platforma sifatidagi rolini saqlab qolish va uni isloh qilish zarurati xususida bo‘ldi. Xavfsizlik kengashi tarkibini kengaytirish tashabbusi ana shundan kelib chiqadi.

O‘zbekiston yetakchisi mamlakatimizdagi o‘zgarishlarga ham alohida to‘xtaldi. O‘zbekistondagi islohotlar modeli jahon hamjamiyatiga taklif qilindi. Kambag‘allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha pasaytirilib, oliy ta’lim qamrovi 9 foizdan 42 foizgacha ko‘tarilgani aytib o‘tiladi. Bu raqamlar orqali davlatimiz rahbari mamlakatimizdagi

BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi global siyosiy kun tartibining asosiy mavzusi aniq edi: jahon xavfsizligi va barqaror taraqqiyotni qanday ta’minlash mumkin?

Bu savolga minbarda turib javob berganlar orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi alohida ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbari O‘zbekistondagi islohotlar bilan birga dunyodagi xavf-xatarlarga nisbatan o‘z konseptual qarashlarini bayon qildi. Nutq global hamjihatlik va tinchlik g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgani hamda amaliy tashabbuslar ilgari surilgani bilan alohida ahamiyatga molik.

islohotlarni xalqaro maydonga namuna sifatida taqdim etdi. Asosiy maqsad — har bir fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirish.

Davlatimiz rahbari mintaqaviy siyosatga ham alohida e‘tibor qaratdi. Sakkiz yil oldin boshlangan “Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi bugun natijalarini ko‘rsatayotgani, qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi savdo hajmi 5 barobar o‘sgani, investitsiya jang‘armalari va sanoat zonalarini tashkil etilgani, chegaralar ochilib, nizolar tarixda qolgani aytib o‘tiladi: “... Bugungi kunda Yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayoni boshlandi. Mintaqamiz o‘zining hamjihatligi, barqarorligi, o‘ziga xosligi bilan xalqaro munosabatlar tizimida alohida

Nutqda ekologik masalalarga ham alohida urg‘u berildi. Orol dengizi qurishining oqibatlari, suv tanqisligi insoniyat oldidagi eng katta sinov ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Bu borada O‘zbekistonda allaqachon amaliy harakatlar boshlab yuborilgani, 2 million gektar maydonda cho‘l o‘simliklari ekilgani ta’kidlandi.

Yoshlar masalasi ham alohida e‘tibor markazida bo‘ldi. Jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi yoshlar siyosatini global darajaga olib chiqadi. Tez fursatlarda ochilishi kutilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy merosining BMTda taqdim qilinishi O‘zbekistonning ma’naviy diplomatiyasini kuchaytiradi.

“Yoshlar masalasi ham alohida e‘tibor markazida bo‘ldi. Jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi yoshlar siyosatini global darajaga olib chiqadi. Tez fursatlarda ochilishi kutilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy merosining BMTda taqdim qilinishi O‘zbekistonning ma’naviy diplomatiyasini kuchaytiradi.”

subyekt sifatida tobora mustahkam o‘rin egallamoqda”.

Bu fikr O‘zbekistonning nafaqat milliy, balki mintaqaviy yetakchi sifatida ham namoyon bo‘layotganini anglatadi.

Prezidentimiz xalqaro mojarolarga nisbatan ham o‘z fikrini ochiq ifoda etdi: Afg‘oniston yakkalanib qolmasligi kerak, G‘azoda “ikki xalq uchun — ikki davlat” tamoyili ustuvor bo‘lishi lozim, Ukrainadagi muammo faqat diplomatik muloqot orqali hal qilinishi zarur. Bu yondashuv O‘zbekistonning xalqaro huquq tamoyillariga sodiq va tinchlikparvar davlat ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu nutq nafaqat O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlar, balki jahon hamjamiyati uchun aniq “yo‘l xaritasi”ni ham belgilab berdi. Bu nutqni shartli ravishda tinchlik va hamjihatlik yo‘lidagi dasturlamal deb atash mumkin. Unda mamlakatdagi islohotlar, mintaqaviy hamjihatlik va sivilizatsiyalararo muloqot tashabbuslari bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda jahon hamjamiyatiga taqdim etildi.

Bugun O‘zbekistonning global siyosiy sahnadagi yangi imjosi shakllanib borayotir. Prezidentimizning BMT minbaridagi nutqi tinchlik, hamjihatlik va yangi diplomatiya sari eng maqbul takliflar sifatida yangradi.

XALQPARVAR TIZIM — YUKSAK MARRALAR KAFOLATI

Inson har doim baxtli, farovon yashashni istaydi. Buning o‘lchovi esa o‘sha inson istiqomat qilayotgan yurtida unga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, yaratib berilayotgan sharoitdir. O‘zbekistonda turfa qarash, e‘tiqodlarga ega ko‘plab xalqlar, millat va elatlar yashaydi. Ularning har biri faqat o‘z qarashi, mafkuras, e‘tiqodi asosida baxtli, farovon yashash mumkin deb biladi va bu tabiiy hol.

Lekin dunyoda butun jamiyatni bitta qolipga solish, yagona mafkura asosidagina farovon, baxtli qilish mumkin degan qarash ham mavjud. Qaysidir toifa g‘oyasi ilgari surilib, boshqalarning huquqi, qadr-qimmatiga yerga uriladi. Bu esa nizolarga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida bunday nizolardan xoli bo‘lish yo‘lini tanlagan. Ya’ni yurtimizda mavjud qonunlar barcha uchun teng, hammaning vijdon erkinligi ta’minlangan. Shu orqali jamiyatda birdamlik, turfa qarashlarga ega fuqarolarning yagona maqsadi — mamlakat taraqqiyoti yo‘lida birlashishi yuz bermoqda. Bunda Prezidentimizning “Bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!” degan fikri yo‘lchi yulduz vazifasini bajaryapti.

Bugun O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega kuchli, qudratli, inson huquqlari to‘la himoya qilinadigan, so‘z erkinligi ta’minlangan demokratik davlatga aylanib bormoqda. Buning negizida, avvalo, tinchlik va osoyishtalikni saqlab, azal-azaldan shunday fazilatlarini ko‘z qorachig‘idek asrab, yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalab kelayotgan xalqimizning fidokorona mehnati, aqlu zakovati mujassam. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining quyidagi gapini eslab o‘tishni o‘rinli deb o‘ylayman: “Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtog‘iga “Adolat — davlatning asosi va hukmdorlar shioridir”, degan hikmatli so‘zlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug‘vor g‘oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasidagi amaliy harakatlarni poydevoriga aylandi”.

Hayotimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar asnosida yana bir haqiqatni ta’kidlash joiz. Tarixni dono, qat’iyatli, uzoqni ko‘ra bilgan shaxslar yaratadi. Shaxslar davlatning, xalqning u yoki bu burilish nuqtasida katta sahnaga chiqadi, uning taraqqiyoti uchun o‘zida inqilobiy qarorlar qabul qilishga shijoat va jasorat topa oladi. Prezidentimiz xalqimiz tarixini yangi — nurli iqbol o‘zaniga bura oldi. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish davrini boshlab berdi, xalqimiz qonida mudrab yotgan bunyodkorlik, tadbirkorlik, ilmu ma’ rifatga intilishni uyg‘otdi.

Haqiqatan, bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas. “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi”, deya boshlanadigan yangilangan Konstitutsiyamiz esa mazkur islohotlarning huquqiy asosini mustahkamladi.

Ba’zan o‘ylab qolaman, nega yangi O‘zbekiston? Uning mazmun-mohiyati nimada? Chunki “yangi” so‘zi “jadid” degan ma’noni beradi. Millatni savodli, o‘qimishli, yuksak orzu-niyatli, vatanimizni jahonning ilg‘or mamlakatlari qatorida ko‘rishni istagan jadid bobolarimiz orzusidagi davlat barpo etish g‘oyasi endi uzoq o‘tmish qad’idan bugunimizga ko‘chdi. Bu bor gap. Demak, bugun davlatimiz yetakchisini qo‘llab-quvvatlayotganlarni, dunyoda tenglar ichra teng bo‘lishga chorlayotganlarni ham bemalol jadidlar deb atash bo‘ladi.

Aslida, jadid o‘zgarayotgan dunyoda o‘zligimizni anglash va milliy birligimizni rivojlantirishga, taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan illatu kamchiliklardan qutulishga intilayotganimiz, yuksak marralarni ko‘zlayotganimiz jadid bobolarimiz orzu qilgan jamiyat sari yo‘l olganimizdan darak.

Adolat odamlarda kelajakka ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois, Bosh qonunimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi kafolatlangan. Ilgarigi “davlat — jamiyat — shaxs” tamoyili bugun “inson — jamiyat — davlat” maqomini oldi.

Konstitutsiyamizdagi “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”, degan norma mamlakat taraqqiyotida birlamchi, yaxlit va yagona rol o‘ynaydi.

Davlat boshqaruvining samarali, yaxlit va xalqparvar tizimini mustahkamlash, parlamentarizmini rivojlantirish orqali aholi farovonligi va davlatning barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Har bir demokratik davlat rivojida milliy Konstitutsiya huquqiy tayanch va muhim omildir. Konstitutsiya va milliy qonunlarga itoat muhiti jamiyatda milliy totuvlik va barqarorlik hukm surishi, insonlarga o‘zaro hurmat

Tashkiliy-xo‘jalik ishlariga rahbarlik qilish borasida katta bilim va tajribaga ega bo‘lgan I.Jo‘rabekov 1985-yilda yanada mas’uliyatli vazifa — O‘zbekiston Vazirlar Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari etib tayinlandi.

Vatanimiz istiqloqla erishganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari sifatida davlatimiz mustaqilligining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, mamlakatimiz oldida turgan g‘oyat serqirra va keng ko‘lamli vazifalarni bajarish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatdi. Xususan, ijro hokimiyati institutlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, mahalliy hokimliklar ishini muvofiqlashtirish, qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirish, fermerlik harakatini rivojlantirish, sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasida tashkilotchilik va tashabbuskorlik fazilatlarini namoyish etdi.

I.Jo‘rabekov Davlat suv nazorati boshlig‘i, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi lavozimlarida ham samarali faoliyat olib bordi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarimizni amalga oshirishda I.Jo‘rabekov, mo‘tabar yoshda bo‘lishiga qaramasdan, suv xo‘jaligi vazirining maslahatchisi sifatida xizmat qilib, o‘zining boy bilim va tajribasi, qimmatli maslahatlar bilan sohani rivojlantirish, yosh kadrlarni tarbiyalash ishlarida faol ishtirok etdi.

I.Jo‘rabekovning xalqimiz va Vatanimiz oldidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan irrigator” faxriy unvoni, “Mehnat shuhrati”, “Do‘stlik”, “Fidokorona xizmatlari uchun”, “El-yurt hurmati”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan mukofotlandi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, samimiy va katarin inson, yoshlarning mehribon ustosi Ismoil Jo‘rabekovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

mustahkamlanishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar qoldirish asosidir.

Tarix shohid, davlatchilik rivojida qat’iyat bilan olg‘a intilish hamisha yagona maqsad tegrasida jipslashish asosidagi tub o‘zgarishlarni talab etadi. Xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish, odamlar islohotlar samarasini uzoq kelajakda emas, balki bugun his etishi uchun markazdan to quyi darajagacha bo‘lgan davlat boshqaruvida aholi fikri va dardini tinglash, ochiqlik siyosati, muammolarning amaliy yechimini topishga qaratilgan barcha sa’y-harakatlar el-yurt manfaatli ustuvor bo‘lgan ichki va tashqi siyosatning Konstitutsiyamizda belgilangan tamoyillarining amaldagi samaralaridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligini kafolatlaydi.

Prezidentimizning 2024-yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha o‘g‘risida”gi farmoyishi bilan tasdiqlangan 53 banddan iborat dasturda doimiy xususiyatga ega chora-tadbirlar, ayniqsa, elektron Konstitutsiya kutubxonasi yaratish bo‘yicha vazifa belgilangan. Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini takomillashtirish orqali aholi barcha qatlamining huquqiy savodxonlikka erishishini ta’minlash mumkin. Bu yo‘nalishda ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ham huquqiy davlat qurish borasidagi intilishlarimizga mosdir.

Dunyoy siyosiy maydonida keskin o‘zgarishlar — ikki xil standartlar avj olgan pallada yangi O‘zbekiston tinchlik elchisi deya e’tirof etilayotgani bejiz emas. Chunki mamlakatimiz ichki siyosatidagi tub o‘zgarishlarni ayni formatda tashqi siyosatda ham keng targ‘ib etmoqda. Birgina misol, so‘nggi yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMTning xalqaro miqyosdagi 10 dan ortiq rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Qonunlar amal qilingan vaqtidagina yashaydi degan fikr bor. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi ulug‘ ajdoddan meros umuminsoniy g‘oyalari, ezgu fikrlar bilan boyitilgan. Bunday qonun ortga qaymas tus olgan islohotlarga quvvat beradi. Jamiyatni bir butun xalq, yagona vatan yo‘lida birlashtiradi, istiqbolida kuchli davlatni barpo etishni tezlashtiradi.

Karim NORMATOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti professori,
tarix fanlari doktori

INSONPARVARLIK TAMOIYILLARIGA ASOSLANGAN MA’NAVIY DIPLOMATIYA

Muzaffar KOMILOV,
O‘zbekiston xalqaro
islomshunoslik
akademiyasi rektori,
tarix fanlari nomzodi,
dotsent

Boshlanishi 1-betda

Markazning eng asosiy qismida Qur’oni karim zali bunyod etilmoqda. Bu yerda musulmon dunyosining ma’naviy durdonasi — qadimiy Usmon Mus’hafi joylashtiriladi. Shuningdek, Qur’oni karimning jahondagi eng nodir qo’lyozma nusxalaridan namunalar o’rin oladi.

Ushbu noyob me’moriy majmuada xalqimizning ma’naviy dunyoqarashini yanada boyitish, yosh avlodni yuksak ma’naviy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Yurtimizda Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgani, ko’plab ilmiy izlanishlar qilinayotgani, buyuk allomalarimizning durdona asarlari tarjimasi va nashri yo’lga qo’yilgani allomalar merosiga chuqur hurmatdan dalolatdir. Ulug’ ajdodlarimiz ilmi va merosi yurtimizning ma’naviy qudrati hamda taraqqiyot poydevori ekanini bugun butun dunyo ko’rib turibdi.

O‘zbekiston rahbari Imom Termiziy majmuasini shaxsan ochib bergani xalqimiz tarixida unutilmas voqea bo’ldi. Bu majmua nafaqat ziyoratgoh, balki islomshunoslik, hadisshunoslik va ma’naviyat markazi sifatida bunyod etildi.

Davlatimiz rahbari ochilish marosimida bunday degan edi: “Imom Termiziy kabi buyuk allomalarimizning merosi — xalqimiz uchun iftixor, yoshlarimiz uchun ma’naviy yo’l-yo’riqdir. Bunday muqaddas maskanlar bizning kelajak avlodga sog’lom dunyoqarash va ma’naviy immunitet tarbiyalashimizda muhim ahamiyatga ega”.

Shu kunlarda Samarqandda Imom Buxoriy maqbarasida ham ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari

Uyg’oq fikr

jadal davom etmoqda. Umumiy maydoni 44 gektar bo’lgan ushbu majmuada hadis ilmi sultonining maqbarasi, 10 ming kishilik masjid va ma’muriyat binosi qurib bitkazilgan. Prezidentimiz maqbara qurilishi jarayonini ko’zdan kechirar ekan, bu majmua faqat ziyorat manzili emas, ilm-ma’rifat, tarbiya va ibrat maskani bo’lishi kerakligini ta’kidlagan edi. Imom Buxoriyning buyuk izlanishlari, bilimi va kamoloti bu yerga tashrif buyuruvchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezgu namuna bo’lishini alohida qayd etgandi.

Majmuada zamonaviy texnologiyalar asosida innovatsion muzey ham tashkil etilgani tahsinga loyiq. U islom olamida muhaddislar sultoni deya e’tirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom ma’rifati rivojiga qo’shgan hissasini namoyon etadi. Shuningdek, muzeyda Qur’oni karimda ismlari zikr qilingan 25 payg’ambar tarixi, Muhammad alayhissalomning ajdodlari shajarasi, u zotning Makka va Madinadagi hayoti, hadislarining jamlanishi va yozilishi haqidagi ma’lumotlar joylashtirilgan.

Yaqinda Prezidentimiz qarori bilan O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Vazirlar Mahkamasi bo’syunuviga o’tkazilgani va markaz islomshunoslik yo’nalishidagi ilmiy tadqiqotlar hamda din bilan bog’liq jarayonlar bo’yicha tahlillarni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilangani mazkur sohadagi islohotlarning chuqur mantiqiy davomi bo’ldi, desak, yanglishmaymiz.

Xalqaro maydonda yangi O‘zbekistonning obro’si va nufuzi kun sayin ortib bormoqda. Bu, avvalo, davlatimiz rahbarining qat’iy



siyosiy irodasi, chuqur tafakkuri va oliy g’oyalarni ilgari surishi bilan bevosita bog’liq.

Buni BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida Prezidentimiz oliy minbarga chiqib, insoniyat taqdiriga daxldor masalalarni mardona ilgari surganida, nutqida tinchlik va barqarorlik, diniy bag’rikenglik, ma’rifatparvar islom g’oyalari, inson qadri va adolat tamoyillari ustuvor o’rin tutganida ko’rishimiz mumkin.

“Yangi O‘zbekiston barcha davlatlar bilan o’zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o’rtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro’yobga chiqarish yo’lida o’z hissamizni qo’shishga doim tayyormiz”, deya har qanday shakldagi ayimachilikni keskin rad etib, ezigulik yo’lidagi hamkorlikka chaqiradigan Prezidentimizning ushbu purma’no nutqi jahon hamjamiyatida ham katta qiziqish uyg’otdi.

Xalqaro maydonda yangi O‘zbekistonning obro’si va nufuzi kun sayin ortib bormoqda. Bu, avvalo, davlatimiz rahbarining qat’iy



siyosiy irodasi, chuqur tafakkuri va oliy g’oyalarni ilgari surishi bilan bevosita bog’liq.

Mulohaza



Manzuraxon SALIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasidagi nutqi keng jamoatchilik e’tiborini tortishi bilan birga, umumsiyosiy munozaralarda alohida ahamiyatga ega bo’ldi.

Yaqin davrda O‘zbekiston va BMT o’rtasidagi munosabatlar yangi, amaliy va faol bosqichga ko’tarildi. Bir paytlar BMT minbarida mintaqaviy muammolar va ekologik inqirozlar haqida so’z yuritilgan bo’lsa, bugun Prezidentimiz butun dunyo uchun muhim dolzarb masalalar, tashabbus va yechimlarni taklif qilmoqda.

Bugun BMTning O‘zbekistonga e’tiborini kuzatsak, o’zaro muloqot, hamkorlik platformasi kengayiganiga amin bo’lamiz. Masalan, Orol dengizi

inqirozini yumshatishga bag’ishlangan rezolyutsiyalar, yoshlar huquqlari bo’yicha tashabbuslar va turizmi rivojlantirishga doir muloqotlar bu hamkorlik mustahkamligini ko’rsatadi. Davlatimiz rahbari ilgari surgan har bir taklif va tashabbus chuqur o’ylangan hamda ular zamirida O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi mujassam.

Xususan, Butunjahon professional ta’lim sammitini O‘zbekistonda o’tkazish taklifi tasodifiy emas. Bu taklif yangi O‘zbekistonning inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tiborini aks ettiradi. Bugun mamlakatimizda maktabgacha va oliy ta’lim qamrovi keskin oshdi, o’qituvchilarning mavqei ko’tarildi. Sammit esa mamlakatimizga dunyodagi ilg’or tajribalarni olib kirish, xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash va ta’limdagi islohotlar va erishilgan yutuqlarni ko’rsatish imkonini beradi. Bu, o’z navbatida, millat kelajagi uchun zamin hozirlaydi. Chunki zamonaviy bilimga ega yoshlar yangi korxonalar ochish va innovasion loyihalar ishlab chiqishga qodir.

Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi va buyuk allomalarimiz merosi taqdimotining BMTda o’tkazilishi O‘zbekistonning ilm-fan va ma’rifatiga yuksak e’tiborini, bu sohadagi boy tarixini jahonga namoyon etadi.

Ayniqsa, mamlakatimiz tashabbusi bilan BMTda bolalar saratoniga qarshi kurashga bag’ishlangan yuqori darajali tadbir o’tkazish taklifi aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan muhim qadam bo’ldi. Shu bilan birga, Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish tashabbusi mamlakatda gender tenglikni ta’minlash va

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o’mini mustahkamlashga qaratilgan izchil siyosatning mantiqiy davomidir.

Prezidentimiz bundan 8 yil muqaddam ushbu yuksak minbarda turib, Markaziy Osiyoni tinchlik, yaxshi qo’shnichilik va sheriklik makoniga aylantirishga qat’iy qaror qilganimizni qat’iyat bilan ta’kidlagan edi. Bu gal BMT minbarida yopiq chegaralar va hal etilmagan bahslar davri ortda qolgani alohida qayd etildi. Jumladan, “...biz bu strategik maqsadga erishdik. Yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi”, dedi davlatimiz rahbari.

Bugun mintaqada o’zaro hamkorlik jadal rivojlanib, savdo, transport va investitsiyalar hajmi bir necha barobar oshdi. Qo’shma fondlar, sanoat zonalar va yirik infratuzilma loyihalari ishga tushirilmoqda. Bu iqtisodiy

“Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi esa yoshlarimizning kelajakdagi tinch va farovon hayotga intilishini mamlakat yetakchisi misolida aks ettirib berdi. Quvonarlisi, bu tashabbus yoshlarning global miqyosda birlashishi va tinchlikni mustahkamlashdagi rolini oshiradi

foyda keltirish barobarida mintaqaviy tinchlik va barqarorlikning mustahkamlanishiga ham xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonning BMT tuzilmalari bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotiga bag’ishlangan xalqaro forum o’tkazish, sanoatda “yashil” texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish va BMT Bosh



USHBU MAQOLANI QORAALPOQ
TILIDA HAM O’QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

hamda bu mamlakat orqali xalqaro transport va energetika koridorlarini rivojlantirish bo’yicha BMTning alohida rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi mintaqadagi barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, Mintaqaviy reabilitatsiya kengashini Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish va Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi mintaqaviy ofisini O‘zbekistonda ochish tashabbuslari mamlakatimizning terrorizm va radikalizmg qarshi kurashdagi qat’iy pozitsiyasini ko’rsatadi.

Orol dengizi fojiasi global muammo ekanini Prezidentimiz yana bir bor shu minbarda turib ta’kidladi. Qurigan dengiz tubidagi 2 million gektar maydonda saksovl va cho’l o’simliklari ekilgani, 2030-yilgacha bu hududning 80 foizida yashil qoplamalar

davlat aloqalarining siyosiy poydevorini mustahkamlab, amaliy hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. AQSH yetakchisi yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni yana bir bor qo’llab-quvvatladi.

Ayniqsa, AQSH Prezidenti Donald Tramp o’zining “Truth Social” ijtimoiy tarmog’idagi sahifasida quyidagi postni yozib qoldirganini jahon hamjamiyati diqqat bilan kuzatdi: “Prezident Mirziyoyev — bir so’zli inson va biz boshqa ko’plab masalalar ustida birgalikda ishlashda davom etamiz! Bu masalaga e’tiboringiz uchun tashakkur”. Dunyoning yetakchi davlat rahbari tilidan chiqqan samimiy so’zlar mamlakatimiz, uning olijanob xalqiga berilgan munosib baho bo’ldi.

Shuningdek, Prezidentimizning AQSHga tashrifi davomida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish, Chexiya Respublikasi Prezidenti Petr Pavel, Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon, Albaniya Prezidenti Bayram Begay, Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn bilan uchrashuvlari o’zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlashda jiddiy qadam bo’ldi.

AQSHning yetakchi moliyaviy institutlari — “Franklin Templeton”, “Citigroup”, “BNY Mellon”, “NASDAQ”, “Boeing”, “MasterCard”, “Visa”, “General Motors”, “Nvidia”, “Oppeheimer”, “Jefferies”, “Air Products”, “Traxys”, “FLSmith”, “Cleveland Clinic”, “Cargill” kabi kompaniyalar rahbarlari bilan muloqotlar ham ushbu tashrifning samarali kechganini tasdiqlaydigan ko’rsatkichdir.

Albatta, yubiley sessiyaning ko’lami nihoyatda keng. Zero, BMT sessiyasi jahon miqyosida eng nufuzli va muhim siyosiy minbar. Unda dunyodagi global muammolar, insoniyat taqdiriga daxldor dolzarb masalalar ko’tarildi. Bu esa bizga yangi chaqiriqlar, zimmasizda turgan yangi vazifalarni belgilab olishga undadi.

Biz islom ma’rifatini ilmiy asosda o’rganish, yosh avlodni ma’naviy boylik va zamonaviy bilim bilan qurollantirish hamda jahon hamjamiyatiga allomalar merosini yetkazishga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytiramiz.

Prezidentimizning ushbu nutqi O‘zbekistonning tinchlik, ma’rifat va taraqqiyot yo’lidagi qat’iy pozitsiyasini ifoda etadi. Unda ilgari surilgan taklif va tashabbuslar yurtimizning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirishi shubhasiz. Bu nutq nafaqat siyosiy ahamiyatga ega, balki ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham barchamiz uchun dasturulamal bo’lib xizmat qiladi.

TASHABBUSLAR MOHIYATIDAGI HAQIQAT

hosil qilish maqsadi qo’yilgani bu ishlarining ko’lami va muhimligini ko’rsatadi.

Suvni tejas bo’yicha butunjahon forumini O‘zbekistonda o’tkazish taklifi ham juda dolzarb. Mazkur forum mamlakatimizni suv resurslarini boshqarish sohasida yetakchiga aylantirishi mumkin. Ekologik migratsiya bo’yicha Global pakt qabul qilish taklifi esa bu dolzarb muammoga xalqaro darajada yechim izlashga qaratilgan yana bir muhim chorlov bo’ldi.

Davlatimiz rahbari raqamli rivojlanish va sun’iy intellektidan foydalanishda tengsizlikning oldini olish haqidagi fikrlari bilan zamonaviy dunyodagi muhim muammoga xalqaro jamoatchilik e’tiborini qaratadi. Ushbu sohada hamkorlik mexanizmini yaratish taklifi O‘zbekistonning texnologik taraqqiyot borasidagi ochiq siyosatini anglatadi.

“Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi esa yoshlarimizning kelajakdagi tinch va farovon hayotga intilishini mamlakat yetakchisi misolida aks ettirib berdi. Quvonarlisi, bu tashabbus yoshlarning global miqyosda birlashishi va tinchlikni mustahkamlashdagi rolini oshiradi.

BMT minbarida baralla aytilgan bu kabi taklif va tashabbuslar yangi O‘zbekistonning maqsadi, ertangi rejalari va o’z yetakchisi orqali butun dunyoga yanrayotgan haqiqiy ovozidir. Demak, Prezidentimizning nutqi yangi O‘zbekistonning butun dunyoga o’zi haqida bildirgan muhim xabari bo’ldi. Zero, nutq mohiyatiga singgan bir haqiqat bor — biz nafaqat o’z kelajagimiz uchun mas’ulmiz, balki global tinchlik, taraqqiyot va insoniyat farovonligiga ham hissamizni qo’shishga tayyormiz!



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official

yuz



yuz

Yangicha yondashuvlar

66

Strategik rejalashtirish uchun kuchli poydevor yaratiladi. Aholining yashash joyi, daromad manbalari va qishloq xo'jaligi faoliyati haqidagi mukammal ma'lumotlar asosida hududlar bo'yicha ijtimoiy xizmatlar, infratuzilma va qishloq xo'jaligi rivojlanish dasturlarini aniq rejalashtirish mumkin.

ZAMONAVIY STATISTIKA MODEL

KAM XARAJAT VA KUTILGAN SAMARA



Behzod HAMROYEV,
Milliy statistika
qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Bu muayyan sana yoki davrda o'tkaziladi va aholining soni, tarkibi, demografik holati, yashash joyi, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari kabi jihatlarini qamrab oladi.

Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish keng ko'lamli statistik tadqiqot bo'lib, undan maqsad agrar sektorning holati, tuzilishi va resurslari to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni to'plash hamda tahlil qilishdir. Bunday kuzatuv iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va sohani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi yerlarining mavjudligi va ulardan foydalanish, xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda ularning faoliyati to'g'risida dolzarb ma'lumotlar olishga yordam beradi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish davlat hamda hududiy darajadagi iqtisodiy-ijtimoiy rejalashtirish uchun asos bo'ladi, ijtimoiy xizmatlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy, transport) taqsimotini adolati tashkil etishga yordam beradi. Shuningdek, urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarini tahlil qilish hamda xalqaro miqyosda qabul qilingan statistik me'yorlarga mos ma'lumotlar bazasini yaratishga xizmat qiladi.

Aholini ro'yxatga olish, odatda, xalqaro me'yorlar bo'yicha har 10 yilda va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish har 5 yilda bir marta o'tkaziladi. Butun mamlakatni to'liq qamrab olish orqali aholi to'g'risidagi eng ishonchli statistik manba hisoblanadi. Ushbu jarayon yangi O'zbekistonda ham mahalla tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda demokratik va ochiq shaklda tashkil etilmoqda.

Bugun aksariyat mamlakatlar aholini ro'yxatga olishni zamonaviy texnologiyalar asosida yo'lga qo'yimoqda. Har bir davlat o'zining ijtimoiy tuzilmasi va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, ro'yxatga olish jarayonida o'ziga xos tajriba va mexanizmlarni ishlab chiqqan.

Masalan, Turkiyada aholini ro'yxatga olish tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rinni tutgan. XX asr mobaynida an'anaviy tarzda aholini ro'yxatga olish har 5-10 yilda bir marta tashkil etilar, bu jarayon esa o'ziga xos qat'iy tartib va choralariga asoslangan edi.

O'sha davrda ro'yxatga olish kuni ko'chaga chiqish taqiqlanishi mamlakat bo'ylab e'lon qilingan. Barcha fuqaro bir kun uyda qolishga majbur bo'lgan. Mahalla va ko'chalarga maxsus tayinlangan ro'yxatga oluvchilar va huquq-tartibot organlari xodimlari, ba'zi hollarda harbiy xizmatchilar ham jalb etilib, tartib qat'iy nazoratga olingan. Har bir uyda kirilib, aholi soni, tarkibi, yashash sharoiti haqida ma'lumotlar yig'ilgan. Fuqarolarning uyda qolishi majburiy bo'lgani uchun bu usul qisqa muddatda keng qamrovli ma'lumot olish imkonini bergan. Biroq bu tizim vaqt va resurslar talab qilishi, ayrim xatoliklar ehtimoli hamda aholiga noqulaylik tug'dirishi bilan tavsiflangan.

Zamonaviy taraqqiyot va raqamli texnologiyalar rivoji bilan Turkiya 2007-yilda aholini ro'yxatga olish tizimida tub islohotlar o'tkazdi. An'anaviy usuldan voz kechilib, manzilga asoslangan aholi ro'yxati tizimi joriy etildi. Bu tizim orqali fuqarolar haqida zarur barcha demografik ma'lumotlar davlatning mavjud registrlari va elektron ma'lumotlar bazalaridan olinadi.

Belarus Respublikasida aholini ro'yxatga olish uzoq yillik an'anaga ega bo'lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirish va demografik siyosatni shakllantirishda muhim o'rinni tutib kelmokda. Aholini ro'yxatga olish jarayoni ilk bor 1897-yilda o'tkazilgan bo'lsa-

da, mustaqil Belarus Respublikasida zamonaviy shakldagi ro'yxatga olish jarayoni 1999, 2009 va 2019-yillarda amalga oshirilgan.

Tarixan, Belarus Respublikasida aholini ro'yxatga olish ishlari an'anaviy tarzda — ro'yxatga oluvchilar tomonidan uyma-uy yurib, ma'lumot yig'ish usuli orqali bajarilgan. Ro'yxatga oluvchilar har bir xonadonga kirib, oila a'zolarining soni, yashash sharoiti, ta'lim darajasi, bandlik holati, milliy tarkibi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha so'rovnomaga to'ldirgan. Ushbu jarayon vaqt va resurs bilan birga fuqarolarning bevosita ishtirokini ham talab qilgan.

Biroq zamonaviy texnologik taraqqiyot va raqamlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda 2019-yilda Belarus Respublikasi aholini ro'yxatga olishda yangi, kombinsiyalashgan (aralash) usulni joriy etdi. Yangi yondashuv orqali aholining ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash jarayoni ancha soddalashtirildi va samaradorligi oshirildi.

Fuqarolar o'z ma'lumotlarini davlat statistika idorasi (Belstat) rasmiy veb-sayti orqali maxsus platformada mustaqil kiritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu usul aholi orasida keng ommalashdi va jarayonni tezlashtirdi. Shuningdek, mahalliy markaziy joylarda maxsus punktlar tashkil etildi. Bu yerda fuqarolar o'z ma'lumotini ro'yxatga oluvchilar yordamida kiritishi mumkin edi.

Internetdan foydalana olmagani uchun mustaqil ro'yxatdan o'tmagan aholi uchun ro'yxatga oluvchilar o'z mobil qurilmalari (planshetlar) yordamida ma'lumot to'plashni davom ettirdi.

Bundan tashqari, barcha to'plangan ma'lumotlar maxsus axborot xavfsizligi choralarini ostida qayta ishlanib, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy qat'iy himoya qilindi.

Xitoy dunyodagi eng ko'p aholiga ega davlat sifatida fuqarolarini ro'yxatga olishga alohida e'tibor qaratadi. Xitoyda aholini ro'yxatga olish jarayoni dastlab 1953-yilda o'tkazilgan. Eng so'nggi ro'yxatga olish ishlari 2020-yilda amalga oshirildi va u dunyodagi eng yirik statistika tadbiri sifatida tarixga kirdi.

Aholini ro'yxatga olish Xitoyda an'anaviy ravishda keng ko'lamli va jismoniy amalga oshirilgan: millionlab ro'yxatga oluvchilar har bir uyni aylanib, ma'lumot yiqqan. Shu bilan birga, zamonaviy texnologik yechimlar bilan bu jarayon ancha samarali va tezkor shaklga keltirildi.

2020-yilgi aholini ro'yxatga olishda Xitoy innovatsion yondashuvlarni qo'lladi. Xususan, mobil ilovalar orqali ro'yxatga oluvchilar ma'lumotlarni real vaqt rejimida markaziy serverlarga uzatdi. Fuqarolar uchun onlayn o'zini o'zi ro'yxatdan o'tkazish platformasi ishlab chiqqan.



ishlab chiqildi. Ro'yxatga olinmagan hududlar GPS texnologiyalari yordamida tezkor aniqlab borildi.

Keng ko'lamli va tezkor ma'lumot yig'ish, elektron texnologiyalar orqali xatoliklarni kamaytirish, shuningdek, demografik siyosatni real vaqtda shakllantirish imkoniyati kabilarni e'tirof etish mumkin.

Germaniyada aholini ro'yxatga olish jarayoni o'ziga xos, zamonaviy va tejankor usulbi bilan ajralib turadi. An'anaviy uydan uyga yurib so'rov o'tkazish usulidan farqli o'laroq, Germaniya zamonaviy statistika amaliyotida ma'muriy ma'lumotlar bazasiga asoslangan tizimni afzal ko'rmoqda. Bu tizim orqali aholining asosiy demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari davlat idoralariining mavjud registrlaridan olinadi.

Bugun Germaniya aholini ro'yxatga olish sohasida innovatsion yondashuvni amaliyotga



tatbiq qilgan davlatlar qatorida yetakchi o'rinni egallamoqda. Ushbu tajribaga ko'ra, rivojlangan davlatlar zamonaviy texnologiyalar va ma'muriy infratuzilmani integratsiya qilgan holda demografik ma'lumotlarni to'plashda yuqori darajada aniqlik va samaradorlikka erisha oladi.

Hozir yangi O'zbekiston sharoitida demografik va iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, xalq farovonligini oshirish, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

66

Statistik ma'lumotlar aniqligi mamlakatda infratuzilmani rejalashtirish, ijtimoiy dasturlarni samarali tashkil qilish va xalqaro maydonda ishonchli iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqdim etish uchun asosiy omildir. Shu sababli ro'yxatga olish jarayonini zamonaviy, tejankor va ishonchli asosda tashkil etish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

kiritilishi ro'yxatga oluvchilar xatolarini keskin kamaytiradi. Ro'yxatga oluvchilarning ish umumdorligi, geografik qamrovi real vaqtda monitoring qilinadi.

O'zbekistonda esa bu borada milliy an'ana va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligida innovatsion yondashuv — "mahalla yetiligi" modeli asosida ish yuritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Yangi O'zbekistonning boshqaruv tizimida mahalla nafaqat ijtimoiy institut, balki aholini tizimli qamrab olish va tahlil qilishda muhim darvoza vazifasini o'tamoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ham mavjud tizim asosida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish taklifi ilgari surilmoqda.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishda "yettilik" yordamidan foydalanishning afzalliklari ko'p. Xususan, "mahalla yetiligi" aholining kundalik hayotidan xabardor bo'lgani uchun ro'yxatga olish jarayonida aniqlik va tezkorlikka erishiladi. Maxsus ro'yxatga oluvchilarni keng ko'lamda safarbar qilish o'rni mahalla tizimidan foydalanish orqali moliyaviy va tashkiliy xarajatlarning katta qismi tejalandi. Chekka hududlar va zaif qatamlar ham to'liq qamrab olinadi. Shuningdek, aholi mahalladagi tanish vakillari orqali ma'lumot berishga ko'proq ochiq va tayyor bo'ladi. Qolaversa, mahalla vakillari mobil qurilmalar orqali ma'lumotlarni to'plash va markaziy tizimga uzatish imkoniyatiga ega.

Ushbu taklif nafaqat iqtisodiy jihatdan tejankor, balki davlat boshqaruvida mahallalarning ijtimoiy rolini oshiruvchi va jamiyat bilan to'g'ridan to'g'ri islovchi innovatsion yondashuv sifatida ham o'zining dolzarbligini namoyon etadi.

Ro'yxatga olish natijasida yangilab boriladigan, real va ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, infratuzilma loyihalarini adolati rejalashtirish, ijtimoiy xizmatlar taqsimotini takomillashtirish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashda mamlakatning pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy davlat boshqaruvi uchun demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, infratuzilma loyihalarini adolati rejalashtirish, ijtimoiy xizmatlar taqsimotini takomillashtirish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashda mamlakatning pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xarajatlarning asosiy qismi tadbirida ishtirok etuvchi mahalla xodimlarini rag'batlantirish hamda targ'ibot ishlarini tashkil etishga yo'naltiriladi.

Eng muhim yangilik shundaki, taklif etilayotgan yangi yondashuv orqali ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish xarajati sezilarli kamaytirilmoqda. Ya'ni dastlabki hisobotlarda 1 trillion 667 milliard so'm deb belgilangan xarajat miqdori 12 barobar qisqartirilishi evaziga 1,5 trillion so'm iqtisod qilinishi kutilmoqda.

Bu esa ro'yxatga olish jarayonini moliyaviy jihatdan samarali tashkil etish bilan birga, byudjet mablag'laridan tejankorlik bilan foydalanish imkonini ham beradi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishda mavjud tizimdan foydalanish yangi O'zbekistonning boshqaruv tizimini zamonaviy, xalqchil va tejankor yo'nalishda rivojlantirish uchun innovatsion qadamdur. Bu yondashuv



nafaqat mablag'ni tejaydi, balki ro'yxatga olish sifatini oshirib, davlat va jamiyat o'rtasida ishonchli aloqa ko'prigini mustahkamlaydi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini zamonaviy va samarali tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ro'yxatga olish orqali jamiyatning haqiqiy demografik va iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlanadi. Bu esa islohotlarning ilmiy asosda olib borilishi, ijtimoiy siyosatning adolati shakllanishi va davlat boshqaruvi samaradorligi oshishiga zamin hozirlaydi.

Innovatsion va milliy sharoitlarga moslashgan gibridd yondashuv — "mahalla yetiligi" tizimidan foydalanish orqali ushbu jarayonni ancha samarali va iqtisodiy tejankor shaklda amalga oshirish mumkin. Bunda yangi xodimlar yollash va ularga maosh to'lash xarajatidan voz kechiladi hamda mavjud planshetlardan foydalaniladi. Shu bois, yangi planshet xaridi uchun mablag' sarflanmaydi.

Umuman olganda, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishda innovatsion gibridd yondashuv O'zbekiston uchun nafaqat moliyaviy jihatdan maqbul, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan, davlat boshqaruvi tizimini zamonaviylashtiradigan va fuqarolarning davlatga ishonchini oshiradigan samarali model sifatida xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonning rivojlanish yo'lida bunday ilg'or, xalqchil va tejankor yondashuvlar muhim bosqich bo'lib, kelgusida boshqa sohalarga ham innovatsion islohotlarni tatbiq etishda o'ziga xos tajriba maktabiga aylanadi.

Mamlakatimizda 2021-yil noyabrda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent

shahriining Yashnobod tumanida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish jarayoni o'tkazilgan.

Shu bilan birga, 2022-yil avgustda Toshkent viloyatining Parkent tumani hamda Samarqand viloyatining Jomboy tumanida qishloq xo'jaligi sinov tariqasida ro'yxatga olingan.

Mazkur tajriba-sinov jarayonida ro'yxatga olish ishlari an'anaviy usullar, ya'ni internet, planshet va qog'oz blankalardan foydalangan holda bajarilgan.

Bugungi global o'zgarishlar davrida aholi va qishloq xo'jaligi resurslarini to'liq va aniq hisobga olish har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik siyosatini samarali shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, qishloq aholisi va qishloq xo'jaligi faoliyati o'zaro bog'liq bo'lgan O'zbekiston kabi davlatlar uchun bu ikki jarayonni uzviylashtirib, bir vaqtda amalga oshirish zamon talabidir.

BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) hamda Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) rasmiy tavsiyalariga ko'ra, aholi va qishloq xo'jaligini birga ro'yxatga olish mumkin. Faqat bunda har bir turdagi kuzatuv bo'yicha ma'lumotlar sifati ta'minlanishi, xalqaro statistika standartlariga hamda qo'shma metodologiyaniing tajriba asosida sinovdan o'tkazilishiga qat'iy rioya qilinishi lozim.

Bundan tashqari, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tavsiyalarida ta'kidlanganidek, muvaffaqiyat uchun qishloq xo'jaligiga bag'ishlangan alohida anketa yoki modul joriy etilishi, uy xo'jaliklari tarkibida qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritayotgan subyektlar aniqlanishi, ro'yxatga oluvchilar qo'shimcha tayyorgarlikdan o'tkazilishi lozim.

O'zbekistonda aholi va qishloq xo'jaligini birgalikda ro'yxatga olish tartibining joriy etilishi resurslardan oqilona va tejankorlik bilan foydalanish imkonini beradi. Alohida-alohida ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazishga ketadigan ortiqcha moliyaviy, insoniy va texnik

resurslar qisqaradi. Bitta integratsiyalashgan jarayon orqali ma'lumot yig'ish xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Shuningdek, aholi va qishloq xo'jaligiga doir ma'lumotlar bir vaqtda yig'ilgani uchun ro'yxatga olish jarayoni tezlashadi. Bu ma'lumotlarning yangiligi va dolzarbligini saqlash imkonini beradi.

Bitta uy xo'jaligi haqida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar bir paytda yig'ilganida statistik uyg'unlik va ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi oshadi. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy rejalashtirishda yanada aniq prognozlar qilish imkonini beradi.

Strategik rejalashtirish uchun kuchli poydevor yaratiladi. Aholining yashash joyi, daromad manbalari va qishloq xo'jaligi faoliyati haqidagi mukammal ma'lumotlar asosida hududlar bo'yicha ijtimoiy xizmatlar, infratuzilma va qishloq xo'jaligi rivojlanish dasturlarini aniq rejalashtirish mumkin.

Xalqaro reytinglar va hamkorlikka ishonch oshadi. Yuqori sifatli va xalqaro standartlarga mos statistika O'zbekistonning BMT, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar oldidagi nufuzini oshiradi hamda yangi moliyaviy hamkorliklar uchun imkoniyat yaratadi.

Yig'ilgan ma'lumotlarning elektron shaklda real vaqt rejimida qayd etilishi raqamli iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi va statistik axborot bazalarini takomillashtiradi.

Umuman olganda, aholi va qishloq xo'jaligini bir vaqtda va integratsiyalashgan holda ro'yxatga olish O'zbekiston uchun nafaqat moliyaviy tejankorlik, balki zamonaviy statistika tizimiga o'tish, davlat boshqaruvida ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va fuqarolar bilan muloqotni kuchaytirish imkonini beradi.

Bugunning gapi

Pardaxol NORQOBILOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi bosh mutaxassisi

“

BMT Bosh qarorgohida Bolalar saratoni va og‘ir kasalliklarga qarshi xalqaro anjuman o‘tkazilishi ham sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, dunyo miqyosida saraton kasalligi va og‘ir kasalliklarga qarshi kurashish hamda oldini olish bo‘yicha natijador va samarali ishlarni bajarish yo‘lida muhim amaliy qadamdir.

”

oldini olish bo‘yicha natijador va samarali ishlarni bajarish yo‘lida muhim amaliy qadamdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan gender tenglik to‘g‘risida ham taklif berilgani ahamiyatli. Osiyo mamlakatlari Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq erishish,

masalalari yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda o‘z ifodasini topgan.

Tizimli islohotlar natijasida xotin-qizlarning tazyiq va zo‘ravonlikka uchrashining oldi olinmoqda, ular orasida

NUFUZLI TASHKILOT
MINBARIDAN YANGRAGAN
HAYOTBAXSH CHAQIRIQ

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasida bildirgan fikr-mulohazalari, taklif hamda tashabbuslari o‘ta dolzarbligi bilan barchada qiziqish uyg‘otdi. Nutqda, avvalo, dunyoda xalqaro institutlar maqomi zaiflashib, qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchayayotgani, texnologik va ijtimoiy tengsizlik keskin oshib, iqtisodiy, gumanitar inqirozlar ortib borayotgani qayd etildi. Zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlar manfaatini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik kengashini transformatsiya qilish va tarkibini kengaytirish kerakligi ta’kidlandi.

Bahodir MA'MUROV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

UMUMBASHARIY MAQSADLAR YO‘LIDA

Boshlanishi 1-betda

Binobarin, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga kirishilgan ekan, pedagoglarning o‘zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platforma vazifasini o‘taydigan ushbu muloqot juda muhim. Bunday nufuzli anjumaning yurtimizda o‘tkazilishi, o‘z navbatida, O‘zbekistonda ilm-fanni yanada rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy salohiyati va mahoratini oshirishga zamin hozirlaydi. O‘zbek pedagogikasining xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularning sog‘lom va barkamol unib-o‘sib, hayotda o‘zining

“

Davlatimiz rahbari tomonidan gender tenglik to‘g‘risida ham taklif berilgani ahamiyatli. Osiyo mamlakatlari Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq erishish, gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va ta’sirini oshirish borasida salmoqli yutuqlarga erishmoqda.

”

munosib o‘rmini egallashi uchun yetarli shart-sharoit yaratish ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir.

BMT Bosh qarorgohida Bolalar saratoni va og‘ir kasalliklarga qarshi xalqaro anjuman o‘tkazilishi ham sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, dunyo miqyosida saraton kasalligi va og‘ir kasalliklarga qarshi kurashish hamda

gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va ta’sirini oshirish borasida salmoqli yutuqlarga erishmoqda.

Bu borada O‘zbekistonda ham ayollar huquq va manfaatlarini to‘liq ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish

ishsizlik darajasi kamaydi, ayollar tadbirkorligi kuchaytirildi. Ayollarning boshqaruv sohasidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasidagi faolligi 37 foizga, siyosiy partiyalardagi ishtiroki 49 foizga, oliy ta’limda 50 foizga yetgani ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Davlatimiz rahbarining nutqi to‘la-to‘kis insonparvarlik tamoyillariga asoslangan. Dunyo yoshlarining qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi olijanob g‘oyalarni singdirish dolzarb muammo va vazifa sifatida ko‘tarilgani fikrimizni tasdiqlaydi.

Bu borada “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’ sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi har birimizda faxr-iftixor tuyg‘usini uyg‘otish bilan birga, mas’uliyat hissini ham o‘rtiradi.

YOSHLARNING TINCHLIK SARI HARAKATI

Bugun dunyoda tinchlik masalasi nafaqat alohida davlat yoki mintaqa, balki butun insoniyat taqdiri uchun hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Ertangi kunimiz, taraqqiyot va farovonlik esa, eng avvalo, o‘ s ib kelayotgan avlod qo‘lida. Shu bois, yoshlarning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi yuksak insoniy g‘oyalarni singdirish eng dolzarb vazifalardan. Binobarin, tinchlik faqat so‘z bilan emas, balki amaliy harakatlar, ijtimoiy tashabbuslar va yoshlar ishtirokidagi xalqaro hamkorlik orqali mustahkamlanadi.

Pardagul RAZZOQOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi Beruniy tumani
bo‘linmasi rahbari

Mana shunday hayotiy ehtiyoj va zamon talabi asosida Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi

nutqida “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni ta’ sis etish tashabbusini ilgari surdi. Bu harakat nafaqat turli davlatlar yoshlarini birlashtiradi, balki tinchlik madaniyatini shakllantirish, ziddiyatlarni hal qilishning zamonaviy, inklyuziv va insonparvar yo‘llarini izlab topishda ham samarali platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu harakat qarorgohining aynan O‘zbekistonda joylashtirilishi taklifi ham bejiz emas. Chunki yurtimiz azaldan turli sivilizatsiyalar chorahasi, bag‘rikenglik va hamjihatlik maskani sifatida tanilgan. Millatlar, dinlar va madaniyatlar o‘rtasidagi totuvlik davlatimizning bugungi siyosatida ham izchil amalga oshirilayotgan ustuvor yo‘nalishdir. Aynan shu orqali O‘zbekiston xalqaro maydonda tinchlikparvar, insonparvar va yoshlarga doimo bag‘ri ochiq davlat sifatida e’tirof etilmoqda. Bugun Prezidentimiz nafaqat o‘z yoshlarimizni, balki butun jahon yoshlarini tinchlik, hamjihatlik va taraqqiyot yo‘lida birlashtirishga da’vat etmoqda.

Tinchlik – taraqqiyot kaliti, yoshlar esa uning asosiy qafolatidir. Shu bois, jahon yoshlarining tinchlik sari intilishi insoniyatning barqaror va farovon kelajagiga qaratilgan muhim qadam sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Prezidentimiz “Shu bilan birga, islom ma’rifati g‘oyalari ni chuqur o‘rganish va dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha sa’y-harakatlarimizni faol davom ettiramiz. Yaqin oylarda keng mintaqamiz uchun noyob bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazini ochamiz. Buyuk ajdodlarimiz — mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy merosining alohida taqdimotini Birlashgan Millatlar Tashkilotida o‘tkazish niyatidamiz”, deb ta’kidladi. Bu tinchlik va hamjihatlikni ta’minlash yo‘lida biz nafaqat siyosiy yoki ijtimoiy tashabbuslar, balki ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalari orqali ham harakat qilayotganimizni anglatadi.

Islom sivilizatsiyasi asrlar davomida ilm-fan, ma’naviyat va adolat g‘oyalari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan.

Buyuk ajdodlarimiz — Imom Buxoriyning hadis ilmidagi buyuk merosi, Imom Termiziyning fiqh va islomshunoslikdagi ulkan xazinas, Imom Moturidiyning aqida va ilohiyot borasidagi ilmiy asoslari nafaqat musulmon olami, balki butun insoniyat ma’naviy merosining ajralmas qismiga aylangan. Ularning asar va g‘oyalari hanuzgacha barqarorlik, adolat va insonparvarlikni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mana shu boy ma’naviy merosni o‘rganish va uni jahon jamoatchiligiga yetkazish maqsadida yaqin vaqtlarda keng mintaqamizda noyob tashabbus — Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bu markaz nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ma’naviy izlanishlar maydoni, balki turli din va millat vakillari uchun muloqot, hamjihatlik maydoni sifatida ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini kash etmoqda. Mana shu boy ma’naviy merosni o‘rganish va uni jahon jamoatchiligiga yetkazish maqsadida yaqin vaqtlarda keng mintaqamizda noyob tashabbus — Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bu markaz nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ma’naviy izlanishlar maydoni, balki turli din va millat vakillari uchun muloqot, hamjihatlik maydoni sifatida ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini kash etmoqda. Mana shu boy ma’naviy merosni o‘rganish va uni jahon jamoatchiligiga yetkazish maqsadida yaqin vaqtlarda keng mintaqamizda noyob tashabbus — Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bu markaz nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ma’naviy izlanishlar maydoni, balki turli din va millat vakillari uchun muloqot, hamjihatlik maydoni sifatida ham xizmat qiladi.

professional ta’lim sammitini o‘tkazish taklifini bildirdi.

Shuningdek, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning roli mustahkamlanishini inobatga olib, Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o‘tkazib borish tashabbusini ilgari surdi.

O‘zbekiston 2030-yilga borib, “daromadi o‘rtadan yuqori” bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

singdirish barchaning dolzarb vazifasi. “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati” ta’ sis etilib, uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish haqidagi taklif esa bu boradagi ishlarga yanchika ruh beradi.

Umuman olganda, davlatimiz rahbarining bir necha muhim yo‘nalishni qamrab olgan nutqida yangi O‘zbekistonning dunyodagi barcha mamlakat bilan o‘zaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdori ekani yaqqol namoyon bo‘ladi.

INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASI YUQORILAMOQDA BU YANGI INDEKSDA O‘Z AKSINI TOPDI

Bugungi globalashuv davrida rivojlanish salohiyati ko‘p jihatdan mamlakatlarning innovatsion imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyat samaradorligini baholovchi reytinglar davlatlarning yuksalish darajasini ko‘rsatib beruvchi muhim ko‘rsatkichlardandir. Shunday nufuzli reytinglardan biri — Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index — GII) bo‘lib, mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasini keng qamrovli baholaydi.

Chingiz MIRZAYEV,
Innovatsion rivojlanish agentligi
huzuridagi Ilmiy-texnik axborot
markazi direktori o‘rinbosari

va an’anaviy tarzda sentabrda e’lon

qilinadi. Tadqiqot ishonchligi va qamrovi bilan ajralib turadi. Shuning uchun dunyo miqyosidagi yetakchi innovatsion baholash tizimlaridan biri sifatida tan olingan. Reyting tarkibida ikkita subindeks (Innovation Input Index va Innovation Output Index) hamda 7

ta yo‘nalish bo‘yicha 80 ga yaqin indikator mavjud.

O‘zbekiston GII reytingiga ilk bor 2015-yilda kirgan va shu yilning o‘zida 141 mamlakat orasida 122-o‘rinni egallagan edi. 2020-yilda 93-o‘rin, 2021-yilda 86-o‘rin, 2022-yilda 82-o‘rin, 2023-yilda 82-o‘rin va 2024-yilda 132 ta mamlakat orasida 83-o‘rinni band etgan. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston innovatsion salohiyatini muttasil rivojlantirib, global maydondagi o‘rni ni mustahkamlab bormoqda.

Yaqinda e’lon qilingan 2025-yilgi Global innovatsiya indeksida O‘zbekiston 139 mamlakat orasida 79-o‘rinni egalladi. Bu natija mamlakatimiz xalqaro reytinglardagi mavqeini izchil mustahkamlab borayotganini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston quyi va o‘rta daromad guruhida Vyetnam, Filippin, Marokash, Iordaniya va boshqa 37 mamlakat orasida 7-o‘ringa hamda Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi 10 mamlakat ichida Hindiston va Erondan keyin 3-o‘ringa munosib ko‘rildi.

Bundan tashqari, reytingda innovatsiyalarga yo‘naltiriladigan sarmoya va resurslar (innovation input) bo‘yicha mamlakatimiz 69-o‘rinni, innovation

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

faoliyat natijadorligi (innovation output) bo‘yicha esa 92-o‘rinni band etdi.

2025-yilda mamlakatimizning mazkur reytingdagi o‘rnini yaxshilash maqsadida

qator chora-tadbirlar ko‘rildi. Global innovatsiya indeksining bu yilgi natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston nafaqat ilm-fan va innovation rivojlanish, balki tadbirkorlik

yo‘nalishida ham sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Xususan, mamlakatimiz uchun “Tadbirkorlik siyosati va madaniyati” va “Startup va skeytlarni moliyalashtirish” tarkibiy indikatorlarini shakllantirish yuzasidan ekspert so‘rovi o‘tkazildi. Joriy yilgi reyting natijalariga ko‘ra, mazkur indikatorlar bo‘yicha mos ravishda 3- va 6-o‘rinlarni egallagan holda jahon miqyosida yuqori natija qayd etildi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning ilmiy va ta’lim sohasidagi yutuqlari ham reytingda o‘z aksini topdi. Respublikamizning ikki yirik oliy ta’lim muassasasi — “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi. Mazkur universitetlarning “QS World University Rankings” reytingida qayd etilgan natijalari GII tarkibida ham inobatga olindi. Shu orqali QS reytingi bo‘yicha eng yuqori uchta universitetlarning o‘rtacha bahosi indikatorida O‘zbekiston 11 pog‘ona yuqorilab, 64-o‘ringa ko‘tarildi.

Bugun O‘zbekistonning Global innovatsiya indeksida yuqorilab borishi tasodif emas. Bu mamlakatimizda so‘nggi yillardagi izchil islohotlar, xususan, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, oliy ta’lim sifati va kadrlar salohiyatini oshirish hamda tadbirkorlik muhitini kengaytirishga qaratilgan siyosatning amaliy samarasidir.



Kitoblarning nomiga qarasangiz, har biri bir
da'vat, har biri bir shior. "Olimpiada ilhomlar
she'rlar to'plami 2025-yil Parij olimpiadasi va
paralimpiadasi ishtirok etib, jahon arenasida
yurtimiz bayrog'ini yuksakka ko'targan, oltin
kumush va bronza medallarni qo'lga kiritgan
matonatli va jasur sportchilarimizga bag'ishlangan
she'rlardan iborat.


Mard askarga sovg'a

Vatanni himoya qilish, xalqimiz tinchligini
asrash bo'yicha ijodkor ziyolilar va harbiy

“Ne’mat negadir shpilkani sal tortib ko’rdi
va... sug’urib tashladi! Bu beixtiyor ro’y berdi.
U qo’lida portlashga tayyor granata turganini
sezdiyu, qo’rqib ketdi. Qo’lida cho’g’ ushlaganday
birdan panjasini ochib, granatani tashlab yubordi.
Granata jangovar granatalar to’la yashik tomon

Adib Elbek, Botir, G'ulom obrazlariga teran ma'no yuklaydi. Ismlarning ma'nosida nozikliklar ishoralar bor. Elbek — elning beki, Botir — qo'rqmas, jasur, G'ulom — gul degan ma'noni

Ular orasida Cho'lon, G'afur G'ulom, Erkin
Vohidov, Abdulla Oripov, To'ra Sulaymon,
Husniddin Sharipov, Oydin Hojiyeva,
Gulchehra Jo'rayeva, Shavkat Rahmon,
Muhammad Yusuf, Abdulla Sher, Usmon Azim,




Ular orasida Cho'lon, G'afur G'ulom, Erkin
Vohidov, Abdulla Oripov, To'ra Sulaymon,
Husniddin Sharipov, Oydin Hojiyeva,
Gulchehra Jo'rayeva, Shavkat Rahmon,
Muhammad Yusuf, Abdulla Sher, Usmon Azim,

Bu og'ir jang endigina 21 yoshni qarshi olgan, ulkan orzu-umidlar bilan yashayotgan kichik serjant Yunusjon Oxunovni oramizdan olib ketdi. Mash'um xabar nafaqat Yunusjon tug'ilib o'ssgan Sherobod qishlog'i ahli, balki butun Farg'onani larzaga soldi. Zotan u hali yashashga, yurtga sodiqlik bilan xizmat qilishga haqli o'g'lon edi.

Yunusjon tengqurlaridan samimiyligi
mardigi, fidoyiligi bilan ajralib turardi. U
sportga, harbiylarning sharafli va mashaqqatli
kasbiga bolaligidan mehr qo'ygandi. Maktabda
o'qib yurgan kezlaridayoq maqsadiga erishish
yo'lida barcha to'siq, qiyinchiliklarni yengib
o'tishga harakat qiladi, o'qib, izlandi. Maktabdagi
harbiy ta'lim darslarida yzvod komandir
sifatida tengdoshlariga bosh bo'ldi. Mustaqil
ravishda Sharq yakkakurashi bilan shug'ullandi

Nosir aka umrining oxiriga qadar qishloq maktabida yoshlarga ta'lim-tarbiya berib keldi. Zulfiniso aya jamoa xo'jaliklarida mehnat qildi. Akasi Alijon Xo'qon temir yo'l tarmog'iga xizmatchisi. Opasi Zubayda, singlisi Zilola oilali, tinch-totuv hayot kechirmoqda.



Yunusjon qisqa umri davomida ko'pga o'mak bo'larli ishlar qilishga ulgurdi. U o'qigan 19-maktabida mard, jasur, fidoyi o'quvchining ibratli hayot yo'lini aks ettirgan maxsus yodgorlik o'rnatilgan. Bu yerda jangchi xotirasiga

Vatan, el-yurt
tinchligi yo'lishda qurbon
bo'lgan o'g'lonning oila a'zolari
yolg'iz qolgani yo'q. Ular hukumatimiz va
jamoatchilik e'tiborini sezib turibdi. Yunusjon
mamlakatimiz mudofaa qudratini oshirish,
milliy xavfsizligini ta'minlashga qo'shgan
hissisi, Vatanimiz mustaqilligini himoya
qilishida ko'rsatgan fidoyiligi va mardligi
uchun "Jasorat" medali va bir qancha ko'krak
nishonlari bilan mukofotlandi. U yashagan
mahallada xotira monumenti o'rnatildi.

Hayot o'z yo'lishda, bir maromda davom
etmoqda. Biz esa bu tinchlik, xotirjamlik
aslida mana shunday millat fidoyilarining
xizmati evaziga mustahkamlanganini aslo
unutmastikimiz lozim.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 20:55